

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NOROV SHERZOD SHODMONOVICH**

**NAVOIY VILOYATI MEHNAT RESURSLARI, BANDLIK VA MEHNAT  
MIGRATSIYASINI SOTSIOGEOGRAFIK TAHLILI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Norov Sherzod Shodmonovich**

Navoiy viloyati mehnat resurslari, bandlik va mehnat migratsiyasini  
sotsiogeografik tahlili ..... 3

**Норов Шерзод Шодмонович**

Социально-географический анализ трудовых ресурсов, занятости и трудовой  
миграции в Навоийской области ..... 23

**Norov Sherzod Shodmonovich**

Sociogeographic analysis of labour resources, employment and labour migration in  
the Navoi region ..... 43

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NOROV SHERZOD SHODMONOVICH**

**NAVOIY VILOYATI MEHNAT RESURSLARI, BANDLIK VA MEHNAT  
MIGRATSIYASINI SOTSIOGEOGRAFIK TAHLILI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Gr337 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nazarov Mamatqodir Ismatillayevich**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmonov Marufjan Rustamovich**  
geografiya fanlari doktori, dotsent

**Qurbonov Pahlavon Rustamovich**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27-avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks; (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2021@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 9-avgust № 15-sonli reyestr bayonnomasi).



**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**Q.S.Yarashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish, ishsizlikni oldini olish murakkab masalalardan bo‘lib qolmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining «Global bandlik va ijtimoiy istiqbollari: 2023-yildagi tendensiyalar» hisobotiga<sup>1</sup> ko‘ra, joriy yilda dunyoda ishsizlik darajasi oshadi. Tashkilot ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yil oxirida dunyoda ishsizlar soni 205,2 million kishini tashkil qilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining bu yilgi prognozlariga ko‘ra, dunyoda ishsizlar soni 3 millionga oshib, 208,2 million kishiga, 2024-yilda esa 210,9 million kishiga yetishi aytilgan hamda jahon miqyosida ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifa yechimida hududlar mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, mintaqalar ishlab chiqarish imkoniyatlaridan unimli foydalanish bo‘yicha prognozlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish mehnat migratsiyasining ahamiyati ortib borayotgan globallashu jarayonida ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish, aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bandlik darajasi, mehnatga layoqatli aholining sonini o‘sib borishini ishsizlik darajasining o‘sib borishiga ta‘sirini aniqlash, mintaqalar mehnat resurslarini tabiiy geografik, demografik, iqtisodiy geografik va sotsial geografik omillarni tadqiq qilib, aholi bandligini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim hisoblanadi. Bu borada, xalqaro mehnat migratsiyasini takomillashtirish va mehnat migrantlari muammolari hal etish, mukammal yechimlar topish, ishsizlikni oldini olishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandligini ta‘minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholini ish bilan ta‘minlashga, mintaqalarning hududiy xususiyatlaridan kelib chiqib qator islohatlar amalga oshirilmoqda va bu sohada qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yilgacha kambag‘allikni 2 baravarga qisqartirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Juda katta hudud, boy tabiiy resurslarga ega bo‘lgan Navoiy viloyatida mehnat resurslari, aholi bandligi, mehnat migratsiyasi masalalarini tabiiy geografik, demografik, iqtisodiy geografik va sotsial geografik omillarni tadqiq qilib muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PF-5052-sonli “Bandlik sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

---

<sup>1</sup>World Employment and Social Outlook | Trends 2023. <https://www.ilo.org/publications/world-employment-and-social-outlook-trends-2023>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Farmoni, 2024-yil 4-apreldagi PF-59-sonli “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 10-fevraldagi PQ-52-son “2023–2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsiyon rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mehnat resurslarining shakllanishi, aholi bandligi takomillashtirish va mehnat migratsiyasini tartibga solish masalalari bo‘yicha xorijiy olimlardan A.Smit, D.Rikardo, T.R.Maltus, J.Say, A.Marshall, J.M.Keyns, A.Pigu, M.Fridman, P.E.Samuelson, T.Miahara, S.I.Saqib, Y.Bijak, shuningdek, MDH mamlakatlaridan R.M.Kabo va N.N.Baranskiy, Y.G.Saushkin, Y.N.Avdeyev, N.N.Odinokova, K.X.Gulmirzoyev. Ch.F.Movliyeva, T.V.Pranova, S.G.Radko, D.U.Ishnazarov, Y.Yegov va boshqa olimlarning ishlari muhim o‘rin egallaydi.

Mehnat bozori, mehnat resurslari shakllanishi, aholi bandligi, mehnat migratsiyasi, mehnat unumdorligi va samaradorligi muammolarini o‘rganishga olimlardan A.A.Qayumov, A.S.Soliyev. Q.X.Abdurahmonov, R.X.Shodiyev, R.A.Ubaydullayeva, Sh.R.Xolmo‘minov, I.Sh.Atajanov, G.B.Utepova, D.Artikova, G.A.Akromova, D.N.Raximova, L.R.Maksakova, Z.N.Tojiyeva, A.A.Islomov, N.N.Yuldashev, R.B.Qodirov, L.Z.Ibragimov, E.M.Muhiddinov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Bu ilmiy izlanishlarda mehnat resurslari shakllanishi, mohiyati, mazmuni, mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari to‘la ochib berilgan.

**Disertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasining “Navoiy viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish istiqbollari” nomli bosh ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Navoiy viloyati mehnat resurslari, bandlik va mehnat migratsiyasini sotsiogeografik baholash bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Navoiy viloyati mehnat resurslari, bandlik va mehnat migratsiyasiga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, demografik va sotsial geografik omillar omillrni aniqlash; aholi ish bilan bandligining hududiy tafovutlarini o‘rganish hamda mehnat migrantlaridan to‘g‘ri foydalanishni amalga oshirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

viloyatda mehnat resurslarining shakillanishi, bandlik holati va mehnat migratsiyasini hududiy xususiyatlarini sotsiogeografik tadqiqotlar orqali baholash; viloyat mehnat resurslari samarali foydalanish va aholi bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Navoiy viloyatining aholisi, mehnat resurslari, mehnatga band aholi va mehnat migratsiyasi olingan.

**Tadqiqot predmeti** Navoiy viloyati mehnat resurslarining shakillanishiga ta'sir etuvchi omillar, aholi bandligi, mehnat migratsiyasi, mehnat resurslaridan foydalanish hududiy muammolari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida hududiy taqqoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy matematik, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish, kuzatuv tanlama sotsiologik so'rovnoma va kartografik usullar foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ko'p omilli chiziqli va mediana regressiyasi usullari yordamida ekonometrik modellashtirish asosida viloyat hududlarining 6 ta indikatorli ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ularning aholini ish bilan bandligiga bog'liqlik darajasi aniqlangan;

viloyat hududining tabiiy xo'jalik rayonlari (cho'l yaylov, tog' va tog'oldi hamda sug'orma dehqonchilik) mintaqalarining hududiy xususiyatlarini o'ziga xos ta'sirini inobatga olgan holda aholining ishsizlik muammolari sabablarini sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlangan;

Navoiy viloyati aholisining ish bilan bandligini to'g'ri va aniq rejalashtirish asosiy maqsadida mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, iqtisodiy faol aholi, rasmiy va norasmiy sektordagi bandlar sonining 2040-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan;

Navoiy viloyatining "mehnat resurslari", "aholi tabiiy harakati", "aholi bandligi va mehnat munosabatlarining prognoz ko'rsatkichlari" ArcGIS dasturi asosida 1:1000000 masshtabli kartalari yaratildi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aholi daromadlari farqlanish darajasini aks ettiruvchi Jini indeksi, viloyatda chakana savdo hajmi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ko'rsatkichlari viloyat aholisi bandligiga ta'siri 95 foiz ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatli ekanligini aniqlangan;

yuqori daromadli ish joylari sonining ko'payishi, chakana savdo hajmining oshishi va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga investitsiyalarning ko'payishi hisobiga Navoiy viloyatida bandlikni sezilarli oshirish uchun ish bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

viloyat hududining tabiiy xo'jalik rayonlari (cho'l yaylov, tog' va tog'oldi hamda sug'orma dehqonchilik) mintaqalarining hududiy xususiyatlarini o'ziga xos ta'sirini inobatga olgan holda aholining ishsizlik muammolari sabablarini sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlangan;

Navoiy viloyati aholisining ish bilan bandligini to'g'ri va aniq rejalashtirish asosiy maqsadida mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, iqtisodiy faol aholi,

rasmiy va norasmiy sektordagi bandlar sonining 2040-yilgacha bo'lgan prognozlari ishsiz aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyati yaratilgan;

viloyatning hududiy birliklarida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish, yaqin istiqbolda ishsiz aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi elektron bazasidagi ochiq ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirli elektron bazasidagi ochiq ma'lumotlari, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Shuningdek, taklif va xulosalar tanlama sotsiologik so'rovnoma va muallifning kuzatuv ishlari natijasida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan prognoz va modellarning ishlab chiqilganligi mehnat resurslaridan foydalanishni, aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini hal etishda hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga, tashqi mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Navoiy viloyatida demografik jarayonlarni tartibga solish, tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligini samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, iqtisodiy geografiya fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, sohaga oid darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan beilgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Navoiy viloyati mehnat resurslari, bandlik va mehnat migratsiyasini sotsiogeografik baholash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ko'p omilli chiziqli va mediana regressiyasi usullari yordamida ekonometrik modellashtirish asosida viloyat hududlarining 6 ta indikatorli ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ularning aholini ish bilan bandligiga bog'liqlik darajasini aniqlash natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 03.02.2025-yil №3/dq-1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada aholi daromadlari farqlanish darajasini aks ettiruvchi Jini indeksi, viloyatda chakana savdo hajmi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ko'rsatkichlari viloyat aholisi bandligiga ta'siri 95 foiz ishonchlik darajasida statistik ahamiyatli ekanligini aniqlash hamda yuqori daromadli ish joylari sonining ko'payishi, chakana savdo hajmining oshishi va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga investitsiyalarning ko'payishi Navoiy viloyatida bandlikni sezilarli oshirishga ish bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

viloyat hududining tabiiy xo'jalik rayonlari (cho'l yaylov, tog' va tog'oldi hamda sug'orma dehqonchilik) mintaqalarining hududiy xususiyatlarini o'ziga

xos ta'sirini inobatga olgan holda aholining ishsizlik muammolari sabablarini sotsiologik so'rovnomaga o'tkazish orqali aniqlash yuzasidan berilgan amaliy takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 03.02.2025-yil №3/dq-1-sonli ma'lumotnomasi). foydalanilgan. Natijada ishsizlikning o'ziga xos sabablari, hududiy xususiyatlarning ta'siri asoslangan va ularni oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini bergan;

Navoiy viloyati aholisining ish bilan bandligini to'g'ri va aniq rejalashtirish asosiy maqsadida mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, iqtisodiy faol aholi, rasmiy va norasmiy sektordagi bandlar sonining 2040-yilgacha bo'lgan prognozlaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 03.02.2025-yil №3/dq-1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada viloyat tumanlarida mehnat resurslaridan foydalanish, demografik omilga mutanosib holda ishsiz aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyati yaratilgan;

Navoiy viloyatining "Mehnat resurslari", "Aholi tabiiy harakati", "Aholi bandligi va mehnat munosabatlarining prognoz ko'rsatkichlari" ArcGIS dasturida asosida oid 1:1000000 masshtabli kartalari asosida taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 03.02.2025-yil №3/dq 1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatning hududiy birliklarida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish, yaqin istiqbolda ishsiz aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 2 ta respublika jurnallarida va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

**Disertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibiga kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, shuningdek respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan,

olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mehnat resurslarini iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotning nazariy uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Bozor munosabatlarining rivojlanishi ayrim nazariy tushunchalar mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. «Mehnat resurslari», «ish kuchi» kabilarni shunday tushunchalar jumlasiga kiritish mumkin. «Mehnat resurslari» atamasini dastlab akademik S.G. Strimulin o'zining 1922-yil chop etilgan maqolalaridan birida qo'llagan. Uzoq yillar mobaynida undan mamlakat inson resurslarini boshqarish va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanildi. Sobiq Ittifoq davrida har bir mehnatga layoqatli fuqaroning uzrsiz sabab bilan uzoq muddat ishlamay yurishi qonuniy ta'qib ostiga olingan. Mehnatga layoqatli aholi – mehnat resurslarini tashkil etib, u tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda qat'iy statistik hisobga olinishi iqtisodiyotni markazlashgan usulda rejalashtirishning muhim elementlaridan biri edi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ham Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o'tildi, unga ko'ra aholini tizimiy taqsimlashda mamlakat mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol qismlarga ajratiladigan bo'ldi.

Mehnat resurslari aholining o'z ruhiy fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar ham kiritiladi.

Mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Demografik omillar. Aholining takror barpo bo'lish jarayonlari ya'ni, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, oilaviy jarayonlar; nikoh va ajralish demografik omillarni asosini tashkil etadi.

- Sotsial geografik omillar. Ushbu omillarga aholining ijtimoiy guruhlarga mansubligi, ma'lumotlik darajasi, kasbiy qobiliyati, malaka darajasi, tibbiy-fiziologik ko'rsatkichlari, tarixiy urf-odatlar, mehnat qilishga bo'lgan qarashlari.


- Iqtisodiy geografik omillar. Iqtisodiy geografik o'rin, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, aholining hududiy joylashuvi va harakati, bandligi, sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tashkil etilganligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar.

- Tabiiy geografik omillar. Mazkur omillarga tabiiy geografik o'rin, geologik tuzilishi, foydali qazilma konlarining mavjudligi, relyef xususiyatlari, iqlimi va suvlari, landshafti, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi.

Mehnat resurslarining shakllanishida tug'ilish bilan bir vaqtda o'lim jarayonlariga ham alohida e'tibor beriladi. Mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida o'rganish o'ta murakkab sanaladi, sababi bu sohada

biologik va ijtimoiy asoslar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar keskin namoyon bo'ladi.

Oxir-oqibatda o'lim inson organizmini biologik rivojlanishining g'alabasi sifatida barcha ijtimoiy qonuniyatlardan ustun keladi. Ayni vaqtda inson organizmi jamiyatda yashashi davomida sivilizatsiya yutuqlarining ijobiy jihatlaridan bahramand bo'libgina qolmay, balki atrof-muhitning salbiy ta'sirlaridan mutnazam stresslarga ham uchraydi. Shuning uchun davlatning aholi salomatligi va o'limiga nisbatan olib borayotgan siyosatidagi vazifalar faqatgina sanitariya-epidemiologik vaziyatni nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi lozim.



**1-rasm. Mehnat resurslari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.**


Dissertatsiyaning “**Navoiy viloyatida mehnat resurslarining shakllanishi, aholining ish bilan bandligida mehnat migratsiyasining ta'siri tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida 2023-yilda viloyatda tug'ilish darajasi 21,6 promilleni tashkil etgan holda ma'muriy birliklar bo'yicha katta hududiy farqlarga ega. Tug'ilish darajasining hududiy farqlariga ko'ra viloyat shahar va tumanlarini uchta guruhga bo'lishimiz mumkin;

Tug'ilish darajasi past bo'lgan hududlar: Navoiy shahri, Qiziltepa, Navbahor, Tomdi tumanlari;

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan hududlar: Zarafshon shahri, Karmana, Nurota, Xatirchi tumanlari;

Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlar: Uchquduq va Kanimek tumanlaridir.

Demografik vaziyatning shakllanishida o'lim ham asosiy jarayonlardandir. O'limga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga ya'ni endogen va ekzogen omillarga bog'liq bo'ladi. Endogen omillar ichki omillar bo'lib, inson organizmidagi o'zgarishlar bo'lgan omillardir. Ekzogen omillar esa tashqi omillar bo'lib, ular tashqi muhit ta'sirida sodir bo'ladi. Viloyat o'lim ko'rsatkichlariga ikkinchi omilning ta'siri kattadir. Navoiy viloyatining muloq soni 4495 kishini tashkil etgan, ya'ni o'limning umumiy koeffitsiyenti 4,7 promillga teng bo'lgan. O'lim ko'rsatkichlarida ham shahar va qishloq tumanlarida hududiy farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.




2-rasm. Navoiy viloyati aholisining tabiiy harakati kartasi


Viloyat aholisining dinamikasi tahlil qilganimizda 2000-2023-yillar aholi soni 272,2 ming kishiga ko'paygan. O'rganilgan davrda viloyat aholisi 134,7 foizga o'sgan. Aholi soni dinamikasida o'sish asosan sug'orma dehqonchilik mintaqalari

va shaharlarda kuzatildi. Cho‘l-yaylov mintaqalarida aholi soni kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mehnat resurslarining sonining o‘zgarishi unga ta’sir etuvchi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida tahlil qilganimizdek, Navoiy viloyati mehnat resurslari dinamikasiga tabiiy geografik omillar: tabiiy geografik o‘rin, geologik tuzilishi, foydali qazilma konlarining mavjudligi, relyef xususiyatlari, iqlimi va suvlari, landshafti; iqtisodiy geografik omillar: iqtisodiy geografik o‘rin, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, aholining hududiy joylashuvi va harakati, bandligi, sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining tashkil etilganligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar, sotsial geografik omillardan, ta’lim, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdoaholining ijtimoiy guruhlarga mansubligi, ma’lumot darajasi, kasbiy qobiliyati, malaka darajasi, tibbiy–fiziologik ko‘rsatkichlari, tarixiy urf-odatlar, mehnat qilishga bo‘lgan qarashlari; demografik omillar: aholining takror barpo bo‘lish jarayonlari ya’ni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish, oilaviy jarayonlar; nikoh va ajralish omillar ta’sir etgan.



a)



b)

**3-rasm. Navoiy shahri (a) va Tomdi tumanida (b) aholisining o‘shish dinamikasi (ming kishi)**

Aholining ish bilan bandligi darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan tahlil qilinadi. Iqtisodiy faol aholi va ish bilan bandlar bir biriga yaqin tushuncha bo‘lishiga qaramay, iqtisodiy faol aholi tarkibiga ishga joylashishga muhtoj aholini o‘z ichiga oladi.

**1-jadval**

**Navoiy viloyati aholisi va mehnat resurslarining tabiiy - xo‘jalik rayonlari bo‘yicha taqsimlanishi**

Rayonlar	Ma'muriy birliklar	Maydoni	Jami aholi	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Band aholi
Sug'orma dehqonchilik rayoni	Navoiy sh., Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi	$\frac{5,56}{6,18}$	$\frac{73,9}{779,6}$	$\frac{71,1}{415,8}$	$\frac{69,8}{317,7}$	$\frac{69,8}{297,8}$
Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni	G'ozg'on sh., Nurota	$\frac{5,87}{6,53}$	$\frac{9,2}{97,1}$	$\frac{8,8}{51,4}$	$\frac{9}{40,8}$	$\frac{8,8}{37,9}$
Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni	Zarafshon sh., Konimex, Uchquduq, Tomdi	$\frac{88,55}{98,39}$	$\frac{16,9}{178,8}$	$\frac{20,1}{117,7}$	$\frac{21,2}{96,5}$	$\frac{21,3}{90,7}$

**Izoh:** maxrajda maydon va aholi soni ming kishi hisobida, suratda ulush ko'rsatkichi foiz hisobida

*Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan*

2023-yilda aholining ish bilan bandligining hududiy tafvutlarini tahlil qilganimizda hududlarning viloyatdagi ulushida o'zgarishlar kuzatildi. Navoiy shahri, Konimex, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarida band aholining ulushi o'sgan bo'lsa, Zarafshon shahri, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlarida kamayganligini ko'rishimiz mumkin. G'ozg'on shahri o'rganilayotgan davrda yangi tashkil etilgan. Qishloq tumanlarida tafvut juda katta bo'lib, mehnat resurslarining xo'jalikda bandligiga ta'sir darajasiga ko'ra quyidagicha rayonlarga ajratishimiz mumkin;


I. Sug'orma dehqonchilik rayoni Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahri.

II. Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni Nurota tumani va G'ozg'on shahri.

III. Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari va Zarafshon shahri.


Navoiy viloyati mehnat migrasiyasining o'sish dinamikasi tahlil qilganimizda ishchi kuchi migratlari soni doimiy ortib borgan. Bu yerda shaharlar va qishloq tumanlarida mehnat migrantlari o'sishida tafovutlar mavjud. 2010-2023-yillarda shaharlarda migrantlarning umumiy o'sishi 133,3-800 foizni tashkil etgan. Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, shaharlarda migrantlarning o'sish dinamikasining pastligiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan, jumladan, tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining pastliga, aholining yashash sharoitining qulayligi, yirik ishlab korxonarining mavjudligi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganligi. Navoiy viloyati shaharlaridagi yirik ishlab chiqarish korxonalari yuqori maosh to'lashi bilan alohida ajralib turadi, ayniqsa, Navoiy tog' metallurgaiya kombinati, Qizilqum sement aksionerlik jamiyati, "Navoiyazot" kimyo korxonasi, Navoiy IESi, G'ozgon marmar korxonalari shular jumlasidan.

Qishloq tumanlarida mehnat migrantlarining sonining o'sish ko'rsatkichlari juda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan, qishloq joylarida aholining tabiiy o'sishining yuqoriligi, mehnat resurslariga yangi kelib qo'shiladiganlarning ko'pligi, aholining turmush tarzi, ijtimoiy infratuzulmaning rivojlanmaganligi, ish o'rinlarining kamligi, mavjud ish o'rinlarida oylik maoshning kamligi, ish o'rinlarining katta qismi mavsumiy ishlar tashkil etishi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. 2010-2023-yillarda qishloq tumanlaridada migrantlarning umumiy o'sishi 1000-6100 foizni tashkil etgan. Faqat Uchquduq tumanida migrantlarning umumiy o'sishi 166.6 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Uchquduq tumani aholisi 39,3 ming kishini tashkil etgan holda, shundan shaharda 34,4 ming kishi, qishloqlarda 4,9 ming kishi yashaydi, ya'ni urbanizatsiya darajasi 88 foizni tashkil etadi.



**4-rasm. Navoiy viloyati mehnat migrasiyasining o'sish dinamikasi (2010-2023 yil ming kishi)**

**“Navoiy viloyatida aholi bandligining kelajak istiqbollari, ustuvor yo‘nalishlari va mehnat migratsiyasini takomillashtirish”** nomli uchinchi bobda migratsion jarayonlarning bandlik darajasi va tuzilmasiga ta’siri muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki migratsiya jarayonlari ishchi kuchi dinamikasiga va mintaqalar o‘rtasida nomutanosiblikning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu tendensiya ochiqroq shaklda kuzatilmoqda. Mehnat zaxiralari, iqtisodiy resurslarning muhim tarkibiy qismi sifatida, xususiy mulkka asoslangan xo‘jalik subyektlarida samaraliroq foydalaniladi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari iqtisodiy zaxiralalar, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta‘minlash mehnat bozori orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga biz omillar o‘rtasida korrelyatsiya darajasini tekshirdik (1-rasm). Bunda chakana savdo hajmi, sanoat mahsulotlari (0.92), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi(0.95) va qurilish ishlari hajmi omillari(0.93) bilan Cheddok shkalasi bo‘yicha juda kuchli korrelyatsion bog‘langanligini ko‘rish mumkin.



**5-rasm. Omillar o‘rtasida korrelyatsiya matritsasi**

Umuman olganda, biz tadqiqot davomida omillarga quyidagicha belgilashlar kiritdik:

*Y- Navoiy viloyatida band aholi soni, ming kishi*

*X<sub>1</sub>-ko‘chib kelganlar soni, ming kishi*

*X<sub>2</sub>-Jini koeffitsienti (aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi koeffitsienti)*

*X<sub>3</sub>-chakana savdo hajmi, mlrd so‘m*

$X_4$ -sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd so'm

$X_5$ -Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mlrd so'm

$X_6$ -qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm

$X_7$ - asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd so'm.

Umumiy regressiya tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$y = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_k x_k + u$$

Bunda, Gauss Markov gipotezasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$E(y|x) = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_k x_k$$

Bu yerda,  $a_0, a_1, a_2, \dots, a_k$  erkli o'zgaruvchilarning tegishli koeffitsientlari hisobalanadi. Yuqoridagi model o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatlariga asoslanadi. O'zgaruvchilarning mediana qiymatlariga asoslangan model quyidagicha yozilishi mumkin:


$$M(y|x) = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_k x_k + M(u)$$

Bu yerda,  $M(y|x)$  x ning shartli medianasi,  $M(u)$ - tasodifiy chetlanishning medianasi hisobalanadi. Kvantil regressiya modelini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$Q(\tau|x) = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_k x_k + Q(\tau)$$

Kvantil regressiyaning o'rtacha asoslangan chiziqli regressiyadan farqi shundaki, bu modelda chiziqli dasturlash usullari qo'llanilishi va xatoliklarning absolut qiymatlari yig'indisini minimallashtirish maqsad qilinganligi hisoblanadi.

Tahlil davomida STATA 14 dasturidan foydalangan holda ko'p omilli regressiya parametrlarini hisobladik



**6-rasm. Erkli o'zgaruvchilar medianalarining OLS regressiya ishonchlik intervallariga nisbatan o'zgarishi**

Ya'ni bunda ko'rinib turibdiki, deyarli barcha omillarda mediana 50%lik kvantilda ishonchlilik intervalidan sezilarli darajada chetlashgan. Shunday qilib mediana regressiyasini matematik jihatdan quyidagi yozish mumkin:

$$Y=245.69+738.87X_2+0.022X_3+0.01X_5$$

Boshqacha qilib aytganda, Jini koeffitsientining 0.1 birlikka oshishi iqtisodiyotda bandlar sonining 738.87 ming kishiga oshiradi, chakana savdo hajmining bir milliard so'mga ortishi bandlar sonini 22 kishiga orttiradi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmining bir milliard so'mga oshishi bandlar sonini bir kishiga o'stiradi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijasida Navoiy viloyatida ish bilan bandlik darajasiga viloyat aholisi o'rtasida daromadlar taqsimoti notekislik koeffitsienti oshishi, ya'ni yuqori daromadli ish joylarning ko'payishi eng kuchli ta'sir qiladi. Chakana savdo hajmining ham 1 milliard so'mga ortishi o'rtacha asoslangan chiziqli regressiya tenglamasiga ko'ra 18 ta ish joyi, medianaga asoslangan regressiyada esa 22 ta ish joyi yaratishi aniqlandi, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi nisbatan kamroq eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan regressiyada 8 ta ish o'rni mediana regressiyasida esa 1 ta yangi ish o'rni yaratishi hisoblandi.

Mehnat resurslari ichida iqtisodiy faol aholi alohida o'rin egallaydi. Jami mehnat resurslarining 77,8 foizini aynan, iqtisodiy faol aholi tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi soni 2010 yilga nisbatan 2023 yilda viloyatning ma'muriy birliklari ichida Navoiy shahri, Konimex, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida o'sish kuzatilgan bo'lsa, qolgan barcha hududlarda kamayganligini ko'rish mumkin. Prognoz natijasiga ko'ra iqtisodiy faol aholining soni 2040 yil borib 485 ming kishidan ortadi. Buning 25,5 foizi Navoiy shahri hissasiga to'g'ri kelsa, undan keyingi o'rinlarni Xatirchi (17,9 %), Qiziltepa (14,0%) va Karmana (9,4%) tumanlari egallaydi. Navoiy shahri va Karmana tumaniga ko'chib keluvchi mehnat migratsiyasining ta'siri katta bo'lsa, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida tabiiy ko'payishning hissasi yuqoridir. Iqtisodiy faol aholining past o'sishi ham asosan Tomdi va Uchquduq tumanlarida kuzatiladi.

